

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISINING MEHNAT SHARTNOMASINI
BEKOR QILISHNING AYRIM O'ZIGA XOS JIHATLARI

Jo'rayeva Shaxnoza Rustamovna
Toshkent davlat yuridik universiteti
Mehnat huquqi mutaxassisligi magistranti
Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnat shartnomasini bekor qilishning ayrim o'ziga xos jihatlari qisman yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Davlat xizmati, davlat fuqarolik xizmati, Mehnat kodeksi, davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar, davlat fuqarolik xizmatchilari mehnat shartnomasining shakllari, davlat fuqarolik xizmatini bekor bo'lish asoslari.*

Har bir fuqaro qonun bilan taqiqlanmagan xohlagan kasbni tanlashi, erkin mehnat faoliyatini yuritishi, o'ziga mos mehnat sharoitlarini yaratishi va tanlash huquqiga ega. Yuqoridagi ustuvor huquqlarning ta'minlanishi yo'lida davlat rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish vazifasi belgilandi.⁴⁸

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlat boshqaruvi va xo'jalik funksiyalarini birga qo'shib olib borish amaliyotidan voz kechish, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash hamda ijtimoiy ta'minlashning zamonaviy tizimini yaratish bo'yicha choralar ko'rilmoqda.

Shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlarining malakali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlanmayotganligiga, kadrlar malakasining yuklatilgan vazifalar va zamonaviy ehtiyojlarga nomuvofiqligiga, qabul qilinayotgan qarorlar sifatining pastligiga olib kelayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Huquqshunos olim M.Y.Gasanovning fikriga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga binoan har bir shaxsning mehnat qilish huquqi belgilangan, mehnat qilish erkinligi prinsipi xodimga ish beruvchi bilan o'z xohishiga binoan mehnat munosabatlarini bekor qilish huquqini beradi". Demak, davlat fuqarolik xizmatchisi o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishi mumkin va belgilangan huquqiga to'sqinlik qilish mumkin emas. Bunda mehnat shartnomasi bekor bo'lsa ham, xizmat tekshiruvchi o'tkazish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Mehnat kodeksning 97-moddasida mehnat shartnomasini bekor qilishning oltita asosi keltirilgan. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risi"dagi qonun loyihasi mazmunidan kelib chiqsak, mehnat shartnomasini bekor qilishning ikkita asosi ko'rsatilgan. Davlat fuqarolik xizmatchilari

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son [Farmoni](https://lex.uz/uz/docs/-5841063). <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

ma'muriy huquq va mehnat huquqining alohida subyektlari bo'lganligi uchun, mehnat shartnomasining shakli o'zgacha bo'lishi kerak. I.A.Xametov, E.T.Xo'jayev, M.A.Axmadshayeva, Sh.G'.Asadov, N.Said-Gazieva, M.M.Mirakulov, R.R.Xakimov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida davlat xizmatini tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilish kerakligi to'g'risida fikr yuritilgan. MDH davlatlarining ko'pchiligida bu qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunning qabul qilinishi davlat xizmati va davlat xizmatchisining maqomini yangi pog'onaga ko'taradi⁴⁹.

“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonun loyihasining 50-moddasida davlat fuqarolik xizmatini tugatish asoslari keltirib o'tilgan:

Davlat fuqarolik xizmatini tugatishga quyidagilar asos bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida mehnat shartnomasini bekor qilish bilan bog'liq holatlar;

davlat fuqarolik xizmatchisining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotishi;

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini davom ettirish imkoniyatini istisno qiluvchi jazoga tortilgan sudning hukmi qonuniy kuchga kirishi hamda unga nisbatan sudning qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi;

davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun ahamiyatga ega bo'lgan yolg'on ma'lumotlarni taqdim etishi;

davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishi;

ushbu Qonun bilan belgilangan davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari va xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklovlarga rioya etmasligi.

Davlat fuqarolik xizmatining tugatilishi mehnat shartnomasining bekor bo'lishi va davlat fuqarolik xizmatchisi maqomidan mahrum bo'lishiga olib keladi.

Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida ayrim turdagi davlat fuqarolik lavozimlariga majburiy rotatsiya tatbiq etiladi. Ushbu davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallagan davlat fuqarolik xizmatchilarining rotatsiyasi uning roziligisiz amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari mehnat shartnomalarini o'zgartirish va bekor qilishda ularni baholash mezonlari muhim o'rin egallaydi.

Davlat fuqarolik xizmatchisini baholash orqali davlat xizmatida ish samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun subyektivlikdan uzoqlashish shart. Baholashda davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlari, davlat organi va tashkilotini bajariyotgan funksiyasi hamda baholash maqsadi, mezonlari va uning doirasi aniq belgilangan bo'lishi kerak.

Xodimlarni baholash mezonlari ikki guruhga bo'linadi.

Kompetensiyalarni baholash. Bunda xodimning bilimi va ko'nikmalari, ularni amaliy ishda qo'llay olish qobiliyati, shuningdek, ularning xulq-atvori va shaxsiy sifatleri baholanadi. Xizmatchi egallagan kompetensiyalarini baholashning samarali usuli sifatida u egallab turgan yoki egallashni rejalashtirayotgan lavozimni o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda “muammoli vaziyat” masalasini yechishdir.

⁴⁹ Asadov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: yurid.fan.dok.dissertatsiyasi. – T., 2019. – B.20.

Natijaviylikni baholash. Muayyan xodimning ishlash ko'rsatkichlari va ushbu lavozimda ish yuritgan davridagi ko'rsatkichlari bilan taqqoslashga asoslanadi. Buning uchun baholashni boshlashdan oldin aniq maqsadlar qo'yilishi kerak. Xodim ish faoliyatining natijaviylikni bajarigan ish hajmi, amalga oshirilgan loyihalar soni, foyda miqdori yoki tuzilgan bitimlar sonida ifodalash mumkin. Mazkur baholash mezonidan ko'proq xususiy sektor sohasida foydalaniladi.

Professional kompetensiyalar – ish beruvchi tomonidan lavozimga belgilangan funksional majburiyatlarni bajarish uchun zarur bilim, malaka va ko'nikmalar majmuini tashkil etadi hamda insonning butun hayoti davomida ish joyida shakllanib boradi.

Shaxsiy kompetensiyalar – insonning biron sohada yoki faoliyat turida samarali ishlashini ta'minlovchi shaxsiy sifatlar yig'indisi.

Davriya attestatsiyalar orqali davlat fuqarolik xizmatchisining mehnat shartnomasida o'zgarishlar amalga oshishi mumkin.

Attestatsiya komissiyasi attestatsiya varaqasida aks ettirilgan savol-javoblar natijasiga ko'ra quyidagi xulosalardan birini chiqaradi:

“attestatsiyadan o'tdi – egallab turgan lavozimiga loyiq”; “attestatsiyadan shartli o'tdi – egallab turgan lavozimiga shartli ravishda loyiq”. Bunday holda xodimga 6 oy qo'shimcha sinov muddati belgilanadi. Muddat tugagach tegishli tartibda xodim qayta attestatsiyadan o'tkaziladi, “attestatsiyadan o'tmadi – egallab turgan lavozimiga noloyiq”.

Attestatsiya komissiyasi qarori bilan “attestatsiyadan o'tmadi – egallab turgan lavozimiga noloyiq” deb topilgan xodimlarga o'z mutaxassisligibo'yicha egallab turgan lavozimiga nisbatan pastroq lavozimda ishlash tavsiya etiladi. Agarda bunday lavozim bo'lmasa yoki xodim tavsiya etilgan lavozimda ishlashdan bosh tortsa, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinadi.

Attestatsiya komissiyasining qaroridan norozi bo'lgan xodim o'n kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, shuningdek sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

Attestatsiyadan o'ta olmagan xodimning shikoyati uch kun muddatda ko'rib chiqiladi va ushbu muddat davomida attestatsiya komissiyasi xulosasi va tavsiyalarning ijrosi to'xtatib turiladi. Yuqorida ko'rsatilgan muddat tugagach, qabul qilingan qaror ijroga qaratiladi.

Xodimning shikoyati asosli deb topilganda takroran attestatsiya o'tkaziladi va tegishli tartibda qaror qabul qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat xizmatchisi faoliyatini baholash – davlat boshqaruvi sohasida faoliyat ko'rsatadigan xizmatchining baholash usullarini qo'llagan holda aqliy salohiyatini, egallagan kompetensiyasini, ish samaradorligini, tashkilotchilik qobiliyatini, jamiyatdagi o'rnini aniqlashga va uning psixologik portretini yaratishga qaratilgan faoliyat.

Baholash natijasida esa xizmatchini xizmat pillapoyasidan yuqoriga qarab harakatlanish, rotatsiya qilish, moddiy rag'batlantirish, martaba darajasini berish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashga yuborish hamda mehnat shartnomasini bekor qilish mumkin.

Sodir etilgan huquqbuzarlikning xususiyatlariga qarab, davlat fuqarolik xizmatchisi intizomiy, ma'muriy, jinoiy, moddiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Davlat xizmatchilari faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonunning qabul qilinmaganligi sababli ularni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga binoan amalga

oshiriladi. Ushbu kodeksning 181-moddasiga binoan, davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llash mumkin: hayfsan, o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima (ichki mehnat tartib-qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima) qo'llash; mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin. Qonunchilikda ko'rsatilmagan boshqa intizomiy jazo choralari qo'llash taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 15-moddasiga binoan, "Mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim"⁵⁰.

Davlat-xizmat munosabatlarining bekor qilinishi. Huquq nazariyasi nuqtai nazaridan davlat-xizmat munosabatlarining tugatilishi deyilganda, davlat va fuqaro o'rtasidagi davlat-xizmat munosabatlarini tugatish bilan bog'liq murakkab huquqiy jarayon nazarda tutiladi. Davlat-xizmat munosabatlarining tugatilishi bir necha tarkibiy qismlardan iborat: davlat xizmatchisi maqomining bekor bo'lishi; lavozimdan ozod qilish; mehnat shartnomasini bekor qilish.

Huquqshunos olim E.Xojiyevning fikriga ko'ra, davlat-xizmat munosabatlarining tugatilishi deganda, "davlat xizmatchisining davlat organlari vakolatlarini bajarishni ta'minlash bo'yicha kasbiy faoliyatini vaqtincha yoki to'liq tugatishi, ya'ni davlat lavozimini butunlay tark etishi tushuniladi"⁵¹. Demak, davlat-xizmat munosabatlarining bekor qilinishi (tugatilishi) fuqaroning har qanday davlat xizmatini o'tashni to'xtatishini anglatadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishning o'ziga xos xususiyatlari xizmatni tugatish uchun keltirilgan asoslardan kelib chiqadi. Birinchi guruh asoslariga davlat fuqarolik xizmatchisining o'zi bilan bog'liq holatlar kiradi. Ushbu asoslarga ko'ra, ishdan bo'shatish, odatda, ish beruvchi uchun majburiydir. Ikkinchi guruh davlat fuqarolik xizmatchisining aybdor xatti-harakati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan vaziyatlarni nazarda tutadi. Ushbu guruhdagi xizmatchining mehnat shartnomasini bekor qilishning qonuniy tartibi belgilangan. Bunday tartib ish beruvchining xohishini cheklashga yordam beradi va asossiz mehnat shartnomasini bekor qilish holatlariga qarshi kafolat sifatida qaralishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 97-moddasiga binoan, davlat-xizmat munosabatlarining tugatilishi quyidagicha: davlat xizmatchisi o'zi yoki ish beruvchining (davlat hokimiyati va boshqaruvi organi) tashabbusiga ko'ra; xizmat muddatning tugashi bilan; taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra; davlat hokimiyati va boshqaruvi organi va fuqaro bilan tuzilgan mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra; yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Milliy qonunchilikka binoan, "davlat sirlarini saqlash - bunday sirlarga ega bo'lgan barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek,

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2020 y., 03/20/612/0326-son; 26.03.2020 y., 03/20/613/0362-son.

⁵¹ Xojiyev E.T. Davlat xizmati. – T.: TDYI, 2004. – B 77.

O‘zbekiston Respublikasining mansabdor shaxslari va fuqarolarining burchi⁵². Agar davlat xizmatchisi davlat sirlarini oshkor etsa, u bilan davlat-xizmati munosabatlari bekor qilinib, javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45-moddasiga binoan, muayyan huquqdan mahrum qilinganda “sud tayinlangan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanishini taqiqlashdan iboratdir”.

Quyidagi holatlarda shaxs davlat xizmatchisi maqomidan mahrum qilinadi: bir yil yoki undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga olib kelgan jinoyat sodir etgan; davlatga qarshi qaratilgan jinoiy harakat sodir etgan; davlatga xoinlik qilgan; huquqiy davlatga qarshi qaratilgan jinoiy harakat qilgan; tashqi xavfsizlikka zarar yetkazgan hollarda⁵³.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bevosita davlat fuqarolik xizmatiga kirishni tartibga soladigan normalar belgilanmagan. Unda har bir shaxsning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqi kafolatlangan. Bundan tashqari, mamlakatimizda ishga qabul qilish hamda mehnat shartnomasining tugatilish jarayoni mehnat qonunchiligi normalari bilan amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat fuqarolik xizmatchisining davlat-xizmat munosabatlarining tugatilishi nafaqat mehnat, balki konstitutsiyaviy, ma‘muriy, jinoiy normalar bilan tartibga solinadigan institutdir. Undan tashqari, davlat xizmatchisi maqomini inobatga olib, uning davlat-xizmat munosabatlari bekor bo‘lishi oqibatida, majburiyatlar ham yuklanishi mumkin. Masalan, harbiy va maxsus xizmatda xizmat ko‘rsatgan fuqaro tegishli ruxsat bilangina xorijiy mamlakatga chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

2. Asadov Sh.G‘. O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: yurid.fan.dok.dissertatsiyasi. – T., 2019. – B.20.

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.03.2020 y., 03/20/612/0326-son; 26.03.2020 y., 03/20/613/0362-son.

4. Xojiyev E.T. Davlat xizmati. – T.: TDYI, 2004. – B 77.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019. 2-son, 47-modda.

6. The public service in Germany // <http://www.verwaltung-innovativ.de>

⁵² O‘zbekiston Respublikasi “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019. 2-son, 47-modda.

⁵³ The public service in Germany // <http://www.verwaltung-innovativ.de>